

TESHABOYEV Lazizbek,
DXX “Temurbeklar maktabi” harbiy-
akademik litseyi o‘quvchisi

Ilmiy rahbar: AKHMEDOV Yunusjon

O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA “SOXTA XONLAR” VA ULARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O‘RNI

«ПОДСТАВНЫЕ ХАНЫ» В ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ И ИХ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕННО- ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ

“FALSE KHANS” IN THE HISTORY OF UZBEK STATEHOOD AND THEIR ROLE IN SOCIAL AND POLITICAL LIFE

Annotatsiya. O‘zbek davlatchiligi tarixida soxta xonlarni qo‘yish amaliyoti shiddatli voqealarga boy davrlar, yurtimizning mug‘ul istilochilari ta‘siriga tushib qolishi bilan bog‘liq jarayonlar bilan aloqador. Tariximizdagi siyosiy jarayonlarni o‘rganar ekanmiz muayyan mintaqalarda hokimiyatga intiluvchi kuchlarni o‘z maqsadlariga erishish, xavfsizlikni ta‘minlash, davlatchilik asoslarini mustahkamlash yo‘lida real hokimiyatni boshqa shaxs boshqargani holda, formal hokimiyat boshqa tarixiy shaxs nomida bo‘lib kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalaning yana bir jihati bunday shaxslarning qaysi faoliyat turi bilan shug‘ullangani, ularni davlat boshqaruviga ta‘siri hamda ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan qanday ta‘sir kuchiga ega bo‘lganligi ham muhim sanaladi. Maqolada xalqimiz tarixining ana shunday murakkab sahifalariga oid ma‘lumotlar tahlil etilgan bo‘lib, soxta xonlarning muayyan davlat siyosiy tarixiga qanday ta‘sir o‘tkazganliklari haqida voqealar yoritilgan. Bundan tashqari, soxta xonlarning tarixiy taraqqiyotning aniq davrlarida mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ishtirokchisi, siyosiy hayotda muayyan mavqega egaligi ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: “soxta xonlar”, davlatchilik, siyosiy hokimiyat, milliy davlatchilik, Amir Temur, “xonlar o‘yini”, Sulton Mahmud, Suyurg‘otmish, ashtarxoniylar, mo‘g‘ullar.

Аннотация. В истории узбекской государственности практика назначения подставных ханов связана с периодами, полными бурных событий и процессов, связанных с попаданием нашей страны под влияние монгольских захватчиков. Когда мы изучаем политические процессы нашей истории, мы становимся свидетелями того, что в определенный период истории реальная власть находилась под руководством другого человека, силы, стремящиеся к власти в отдельных регионах для достижения своих целей, обеспечения безопасности и укрепления основ государственности, формальную власть давали другому человеку. Другой аспект вопроса состоит в том, что – каким родом деятельности занимались поставные ханы, как они влияли на государственное управление и социально-политические процессы. В статье анализируются сведения, относящиеся к столь сложным страницам истории нашего народа, и выделяются сведения о влиянии подставных ханов на политическую историю конкретного государства. Кроме того, также подчеркивается, что подставные ханы тоже являлись участниками общественно-политических процессов в странах в определенные периоды исторического развития.

Ключевые слова: «подставные ханы», государственность, политическая власть, национальная государственность, Амир Темур, «игра ханов», Султан Махмуд, Суюргатмиш, Аштарханиды, монголы.

Abstract. In the history of Uzbek statehood, the practice of setting up false khans is associated with periods full of violent events and processes related to the fall of our country under the influence of the Mongol invaders. When we study the political processes in our history, we witness that while the real power was directed by another person, the forces striving for power in certain regions to achieve their goals, ensure security, and strengthen the foundations of statehood, formal power has been in the name of another historical person. Another aspect of the issue is the type of activity that such individuals are engaged in, their influence on state administration, and their influence from a social point of view. The article analyzes the information related to such complex pages of the history of our nation, and the information about the influence of the false khans on the political history of a particular state is highlighted. In addition, it is also emphasized that the dummy khans were also participants in socio-political processes in countries during certain periods of historical development.

Keywords: “false khans”, statehood, political power, national statehood, Amir Temur, “game of

khans”, Sultan Mahmud, Suyurgatmish, ashtarkhanids, mongols.

KIRISH

Xalqimiz tarixini o‘rganar ekanmiz, uning nihoyatda boy voqealardan iborat ekanligiga, bu voqealar o‘z davrida jamiyat hayotiga ta’sir o‘tkazib muayyan davlatlar ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘zgarishiga olib kelgan. An’anaviy tarixshunoslik bunday hodisalarning ayrimlarini o‘rganishni e’tibordan chetda qoldirgan bo‘lishi mumkin, lekin bunday voqealar tarix fanini chuqur o‘rganishga ahd qilgan har bir insonda xalqimizni o‘tmishi haqida o‘ziga xos tasavvurlar paydo qilishga yordam beradi. Soxta xonlarni hokimiyat tepasiga qo‘yish, lekin ularning nomidan davlatni boshqarib o‘zlarining siyosiy maqsadlarini amalga oshirgan qator davlat rahbarlari haqida o‘qiganmiz. Lekin soxta xonlarning taxtga qo‘yish tarixi, ular nominal davlat boshqaruvchisi sifatida qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanganligi, ularni davlat boshqaruvida qandaydir ta’siri bo‘lganmi yoki yo‘qligi haqida ma’lumotlarni o‘rganish tariximizning o‘ziga xos dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Qolaversa tariximizdagi muayyan voqealar xoh ijobiy, xoh salbiy oqibatga ega bo‘lsin ular jamiyat hayotini ilgarilanma harakatlanishi uchun o‘ziga xos ta’sir ko‘rsata olgan. Bunday voqealar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish tariximiz haqida qarashlarimizni o‘zgarishiga, bilimlar zaxirasini yanada boyishiga olib keladi.

Soxta xonlarni taxtga qo‘yilishi o‘zbek davlatchiligi tarixida ikki xil baholanadigan va ko‘pincha polemikaga sabab bo‘ladigan masala hisoblanadi. Tarixiy empatiya nuqtai nazaridan qaralsa ular o‘z davrida hokimiyatga intiluvchi turli siyosiy kuchlarning o‘rtasidagi keskin kurashni pasayishi uchun ham qo‘llanilgan, degan fikrni ilgari surish mumkin. Masalan, Amir Temur o‘zining hokimiyatini formal siyosiy xonlar orqali tasarruf etgan, chunki shunday yo‘l tutilmasa uning murakkab siyosiy davrdagi vaziyati yanada og‘irlashishi mumkin edi. Temurning strategik maqsadlariga erishuvida soxta xonlar muayyan davr davomida jamiyatdagi unga qarshi kuchlarni noroziligini pasaytirishi kerak edi.

O‘zbek davlatchiligi tarixidagi boshqa soxta xonlar misolida ham goho ularning rolini

hokimiyatni zaiflashtiruvchi omil sifatida ko‘rsak, goho ulardan aynan siyosiy vaziyatni yumshatish uchun qo‘llanilgan vosita sifatida ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ularning faoliyatini o‘rganish orqali xalqimiz tarixining muayyan davrlari haqida o‘ziga xos ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

ASOSIY QISM

Tarixiy manbalar beradigan ma’lumotlarga ko‘ra XIV asrning 40-50 yillariga kelib Chig‘atoy ulusi hududlarida siyosiy parokandalik hukm surar edi. Uls tarkibidagi obro‘li sulolalar o‘rtasidagi nizolar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsata boshlagan. 1338-1346 yillarda hukmronlik qilgan Qozonxon hukmronligi davrida iqtisodiy va siyosiy zulm avj olgan. Mazkur xonning zulmidan bezigan ko‘plab ayonlar, amaldorlar o‘z davrining qudratli amiri bo‘lgan Qazag‘on atrofida uyusha boshlaydilar. Amir Qazag‘onning qarorgohi Soli Saroyda (hozirgi Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi Saroy qishlog‘i) joylashgan bo‘lib u Qozonxonga qarshi muxolifatda bo‘lgan kuchlarning siyosiy markaziga aylangan edi. Bu ikki qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1346 yil bahorida Qarshi shahri yaqinida sodir bo‘ladi va Qozonxon o‘limi bilan yakun topdi. Zafar quchgan Amir Qazag‘on turkiy-mug‘ul odatiga ko‘ra, bevosita chingiziylardan bo‘lmagani uchun taxtga qonuniy da’vo qila olmas, shuning uchun u o‘zi bilan siyosiy hamfikir Donishmandchaxonni taxtga o‘tkazdi. Donishmandchaxon 1346-1348 yillarda hukmronlik qilgan, shu tariqa ilk marotaba taxtga soxta xonlar qo‘yildi [5:45].

Amir Qazag‘on joriy etgan Chig‘atoy xonlarini nomigagina xon deb taxtga ko‘tarish an’anasi esa shu davrdan boshlab o‘zbek davlatchiligi tarixiga “xon ko‘tarish”, “soxta xon”, “qo‘g‘irchoq xon” kabi tushunchalarni olib kirgan. Amirning mazkur tadbirni amalga oshirishiga bir qancha sabablar bo‘lgan. Jumladan, Amir Qazag‘on garchi mo‘g‘ul hukmronligiga barham bergan bo‘lsa-da, hali ham Mo‘g‘uliston (Yettisuv)dagi xonlarning katta kuchga ega ekanligi, ularning istalgan paytda bostirib kelishidan xavfsirab yashagan. Bunday muammoni bartaraf qilishda eng to‘g‘ri yo‘l chingiziylarni xon qilib ko‘tarish va shu orqali yurt tinchligini ta’minlash, deb bilgan. Bu bilan Amir Qazag‘on Mo‘g‘uliston hukmdorlariga

Movarounnahrni hali ham Chig'atoy xonlari boshqarayotgandek qilib ko'rsatib, ular tomonidan bo'lishi kutilgan hujumlarning oldini olgan [9:2].

Soxta xon ko'tarishdan ko'zlangan yana bir maqsad, tashqi kuchlar bilan bir qatorda, mamlakat ichida ham hali ko'pchilikni tashkil etuvchi mo'g'ul aristokratiyasining noroziligiga barham berish bo'lgan. Amir Qazag'on Donishmandchaxonni davlat ishlariga umuman aralashtirmagan. Uning huzuriga ayg'oqchilarni "mulozim va soqchilar" sifatida tayinlab, xonni qattiq nazorat ostiga olgan. Chunki bu yerda Chig'atoy ulusi zodagonlaridan ba'zilarining fitna uyushtirish ehtimoli ham bor edi. Birinchi "soxta xon" Donishmandchaxon va Amir Qazag'onning munosabatlari uzoqqa bormagan. Amir Qazag'on oradan ikki yil o'tgandan keyin (1348) Donishmandchaxonning O'qtoy naslidan ekanligi va taxtda faqat Chig'atoy avlodlari bo'lishi kerakligini bahona qilib, uni taxtdan tushirgan. Uning o'rniga Chig'atoy naslidan bo'lgan Bayonqulixon (1348-1359) ko'tarilgan. Shu tarzda Chig'atoy xonlarini nomigagina taxtga o'tkazish tajribasi qo'llanila boshlangan. Hokimiyat boshqaruvidagi bu an'ana amir Qazag'ondan boshlanib, keyinchalik Amir Temur davlat boshqaruvida ham davom etgan [9:4].

Tarixiy manbalarga e'tibor berilsa Chig'atoy ulusida soxta xonlar o'ttiz bittani tashkil qiladi. Ulardan oxirgi to'rttasi Amir Temur siyosiy maydonga kirib kelgan va hukmronlik qilgan davrga to'g'ri keladi. Sharofuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"da bergan ma'lumotga ko'ra Amir Temur va Amir Husayn sarbadorlarni yengib Movarounnahrda o'z ta'sirlarini mustahkamlab olgandan keyin "Chig'atoy naslidan bo'lgan biror kishini xon qilib ko'tarmoqni ma'qul topdilar. Ushbu fikrni tasdiqlash maqsadida, hijriy yetti yuz oltmish beshinchi yilda (1263 – 1264 milodiy yillari) barcha amirlar-u no'yonlarni yig'ib qurultoy o'tkazdilar. Unda hayotning turli o'zgrishlari zahmati vahimasidan faqirlik qorg'onida darvishlik kiyimiga kirib olgan Duri ibn Eljikdi ibn Duvoxon o'g'li Qobulshoh o'g'lonni ul libosidan chiqarib olmoqni va iqqolli qomatini xonlikning ko'rkam xil'ati ila bezatmoqni ma'qul ko'rdilar. Ular birgalashib Qobulshoh o'g'lonni saltanat taxtiga o'tqazdilar" [8:111]. Qobulshohdan keyingi soxta xon Odilsultonni Amir Husayn taxtga o'tkazdi.

Ma'lumki Amir Temur Movarounnahrda o'zining siyosiy hokimiyatini o'rnatish uchun Amir Husaynga qarshi ham kurash olib borishiga to'g'ri kelgan. O'rtadagi ziddiyat Amir Temur g'alabasi bilan yakunlangandan keyin uning harami va xazinalari Temur qo'liga o'tadi. Amir Husayn xonimlaridan to'rt nafari Temur haramiga olinadi. Qozonxonning qizi Saroymulk ham ular orasida edi, uning bolasi bo'lmasa-da, Temur haramida "bosh xotin", "buyuk xonim" deya ataldi. Xon qizi bo'lgan Saroymulkni nikohiga olishi munosabati bilan Temurga "Ko'ragon" (xon kuyovi) unvoni berildi.

Amir Husaynning so'nggi qarorgohi Balx egallanib Samarqandga qaytib kelgan Temur harbiy qo'mondonlar qurultoyida 1370-yilda 9-aprelida Movarounnahrda o'zining siyosiy hokimiyatini o'rnatilganligini e'lon qildi. Lekin Temur chingiziylar avlodidan bo'lmaganligi sabab, "xon" deb atalmagani va taxtga soxta xonlar chingizi Suyurg'otmish va Sulton Mahmudxon o'tirgan, Amir Temur ularning nomidan davlatni boshqarib, farmonlar chiqargan va tangalar zarb ettirgan. Shuningdek, Amir Temur o'zi bevosita Chingizxon avlodidan bo'lmagani uchun o'zini "amir" deb ataydi. 1372-yildan 1388-yilga qadar qo'girchoq xon Suyurg'otmish, undan keyin esa uning o'gli Mahmudxon nomidan ish yuritadi. Manbalarda "Suyurgotmishxon vafotidan so'ng Amir Temur Sohobqiron no'yonlar, amirlar va davlat arkonlari bilan o'tkazilayotgan qurultoyda, bu borada bahs va mashvarat qilib, saltanat taxtiga uning layoqatli o'g'li Sulton Mahmudni o'tirgizdi va uning nomi va duosi bilan tangalar zarb qildirdi", degan fikrlar uchraydi [7:3].

Shu o'rinda Amir Temur taxtga qo'ygan ikki nafar soxta xonlar shaxsiga kengroq nazar solamiz. Suyurg'otmish o'g'lon-to'liq ismi Suyurg'otmishxon ibn Donishmandcha ibn Hindu ibn Burhon ibn Molik ibn O'qtoyxon bo'lib tavallud sanasi noma'lum va u Balx yaqinidagi O'rpuz mavzeida Amir Temur tomonidan nomigagina Movarounnahr taxtiga o'tqazilgan chingiziy xon bo'lib 1388 yilda vafot etgan. Xonlik darajasiga ko'tarilgunga qadar Syurg'otmish Temurning ulug' beklaridan biri bo'lib, qator harbiy yurishlarda ishtirok etgan. Saltanat Amir Temur tasarrufiga kirgandan so'ng arkoni davlat, beklar, amirlar va no'yonlar bilan ittifoqlikda

xonlikning Suyurg'otmishxonga tayin qilinganligi qayta e'tirof etilgan. Chingizxon o'z saltanatini o'g'illariga taqsimlab bergan vaqtda (1224) Xorazmdagi Xiva va [Kot shaharlari Chig'atoyxon avlodiga berilgan edi. Sohibqiron davlat tepasiga kelgach, Husayn So'fidan bu yerlarni Suyurg'otmishxonga topshirishni talab qilgan. Amir Temurning 1371-1372 yillarda Xorazmga uyushtirgan birinchi yurishida Suyurg'otmishxon ham bevosita ishtirok etadi. 1388-yili Amir Temur to'rtinchi marta Xorazmga yurishga ketgan paytda Suyurg'otmish Buxoroda betob bo'lib qoladi va bir necha kundan keyin vafot etadi. Xorazmdan qaytgan Sohibqiron yuqorida ta'kidlaganimizdek qurultoyda xonlik kursisiga Suyurg'otmishxonning o'g'li Sulton Mahmudni ko'taradi [6:55].

Sulton Mahmudxonning ham tavallud topgan yiliga oid aniq ma'lumot yo'q, manbalar esa uning vafotini 1404 yil sodir bo'lganligini ko'rsatadi. Temur uning nomidan tangalar zarb qildirgan, hokimiyatni tasarruf etgan. 1395-yil To'xtamishxonga qarshi qilingan ikkinchi yurish vaqtida Sulton Mahmudxon o'g'ruqqa boshchilik qilgan va jangdan keyin yaqinida joylashgan Yuluqluq va Uzuq'luq nomli mavzeda (hozirgi Saratov shahrida) Sohibqironga kelib qo'shilgan. 1398-1399 yillardagi Hindistonga qilingan yurishda faol ishtirok etgan. Sulton Mahmudxon qo'shinning so'l qanoti juvong'orga rahbarlik qilgan va ko'plab qahramonliklar ko'rsatgan [3:83].

Amir Temur: "Sultonning o'zi sheryurak va baland himmat bilan harakat qilsin. Chunonchi, Qaysar bilan bo'lgan jangda shunday qildim: Amirzoda Mironshoh o'ng qanotning sardori edi. Unga Qaysarning chap qanoti ro'baro'si va yonidan jangga kirishni buyurdim. Chap qanotning amirlari—amirzoda Muhammad Sulton va amir Sulaymon (shoh)ga esa yorliq yuborib, qaysarning o'ng qanotiga hujum qilishni tayinladim. Ung qanotimdagi amirzoda Abu Bakrga tepalik ustida turgan Yildirim qaysarning qo'l favjiga turktoz qilishni buyurdim. O'zim esa qo'l favjlari va ulus, aymoq lashkarlari bilan qaysar tomonga yurdim. Qaysarning sipohiy favjlari birinchi hamlamdayoq yengildi. Sulton Mahmudxon (qochayotgan) qaysarning ketidan quvib, uni qo'lga tushirdi va mening dargohimga olib keldi", deb yozadi [1:128].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Amir Temur Suyurg'otmishxon va uning o'g'li

Sulton Mahmudxonni nomigagina taxtga o'tqazgan bo'lsa ham ularning davlat boshqaruvidagi mavqeini tushirib yubormagan, aksincha ularning imkoniyatidan kelib chiqib mas'uliyatli vazifalarni topshirgan, ular ham Temurga munosib va sadoqatli xizmat qilishga harakat qilishgan [2:98].

O'zbek davlatchiligi tarixida soxta xonlarni qo'yish an'anasi Temurdan keyin ham to'xtab qolgani yo'q. Ayniqsa XVII-XIX asr boshlarigacha bunday voqeani Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixida ham ko'p uchratamiz. Agar Amir Temur misolidagi soxta xonlar hokimiyatda turgan davrda Temur shaxsiy qobiliyatidan mamlakat kuchli va siyosiy barqaror turgan bo'lsa, Buxoro xonligi va amirlik davri hamda Xiva xonligidagi soxta xonlar hokimiyatda bo'lgan davr haqida bunday deya olmaymiz. Tom ma'noda bu davrlarni butun O'zbekiston tarixidagi eng murakkab davr deyish mumkin.

Buxoro xonligi (keyinchalik amirligi) o'zining butun mavjudligi davomida (1533-1920 yillar) jami o'ttizga yaqin xon va amir ko'rgan bo'lsa, Xiva xonligida deyarli bir asrda (1695-1804 yillarda) 37 marta xon almashgan. Bu davrda Xiva xonligi taxti uchun kurashga Buxoro xonligi, Eron, turkmanlar, qozoqlar ham aralashgan edi. Natijada xonlikda shunday tartibsizlik paydo bo'ldiki, tarix hatto yarim kunlik xonlarni ham ko'radi. Aholi qashshoqlashadi, shaharlar vayronaga aylanadi [5:15].

Xiva xonligini Buxoro, Eron va turkmanlar tomonidan egallanib uning mustaqilligi vaqtinchalik yo'qotilgan davrda xonlar nufuzi pasaydi, ichki kurash kuchayadi. Markaziy hokimiyat esa kuchsizlanadi. 1623-yili taxtni turkmanlar yordamida egallagan Asfandiyorxon davrida turkmanlarning xonlikdagi obro'yi oshadi va o'zbeklar bilan ziddiyat kuchayadi. Natijada o'zbeklarning katta qismida Asfandiyorxonga qarshi kayfiyat shakllanadi. Oxir-oqibat ular xonning ukasi, Abulg'oz Bahodirxonni Qalmoq xonligidan chaqirib oladi va uni Asfandiyorxon vafotidan so'ng taxtga o'tqazishdi.

Abulg'oz Bahodirxon va uning o'g'li Anushaxon davrida Buxoro bilan urushlar ko'payadi. Abulg'ozixon va Buxoro xoni Abdulazizxon o'rtasida tuzilgan tinchlik shartnomasi Anushaxon tomonidan buziladi. U Buxoro xonligiga katta yurish qilib, Samarqandni

egallaydi. Buxoro xonligi shaharlarini talon-toroj qiladi. Biroq 1685 yil G'ijduvon yaqinida jiddiy mag'lubiyatga uchraydi. Aynan mana shu voqeadan keyin Xivada haqiqiy beqarorlik, «xonbozi» (xonlar o'yini) boshlanib ketadi [5:13].

1695-yildagi Jo'jixon hukmdorligi zamonidan toki Abulg'ozixon V hukmronligi davri – 1806-yilgacha bo'lgan vaqt ichida saroy o'yinlari shu darajada avj oldiki, Xiva xonlari taxtida xonlar juda tez almasha boshladi. Ularning ba'zilar 5-6 yil, ayrimlari 1-2 yil, boshqa birovlar esa 2-3 oy taxtda o'tirdi. Masalan, bir xonning hukmronligi zo'rg'a yarim kunga yetgan. Shu bois XVII asr oxirlaridan XIX asr boshigacha bo'lgan davr tarixda «xonlar o'yini» nomi bilan ataladi.

Dastlab 1557-yilda Do'stxon Bo'g'chaxon Xivada ilk bor taxtga o'tirib, hukmronligini boshlaydi. U poytaxtni muqim Xiva deb belgilagan bo'lsa-da, «xonlar o'yini» davriga kelib, ikki, hatto, uchta hokimiyatchilik avj oldi. Ya'ni rasmiy xon Xivada ko'tarilgan bo'lsa-da, unga qarshi Gurlan, Hazorasp bekliklarida, Orolbo'yida ham amaldagi xonga muxolif bo'lganlar o'zlarini xon deb e'lon qilavergan.

Ma'lumki, xon(qaon) qadimgi turkiy hukmdor, podsho ma'nosini anglatgan. Xon saylash marosimi haqida 1846-yilda Xivaga kelgan rus sayyohi G.Danilevskiy xotiralar yozib qoldirgan. Unga ko'ra, «xon saylash» marosimi oddiy xalqdan pinhona, kechasi bir hovuch saroy amaldorlari va xonning qarindoshlari tomonidan amalga oshirilgan. Eng avvalo, xon qilib saylanadigan kishini yechintirib, boshdan-oyoq yangi libos kiygizganlar. Keyin kigizlarga o'tirg'izib, uch marta havoga iring'itib, «xon, xon, xon» deb nido qilganlar [12:2].

Xivada xonlarning tez-tez almashinuvi va o'z kuchiga ega bo'lmasligi viloyat hokimlari va qabila boshliqlarining markaziy hokimiyatdan mustaqilligi kuchayishiga olib keladi. Xonlikda bir vaqtning o'zida bir necha kishini xon deb e'lon qilish boshlanadi. Mamlakat butunlay tartibsizlik ichida qoladi. Bir tomondan o'zbek, boshqa tomondan turkman qabilalari ta'siri kuchayadi. Qo'shimchasiga qozoqlar ham xonlik ishlariga aralasha boshlaydi [4:45].

Lekin shunaqa siyosiy murakkav vaziyatda bo'lishiga qaramay, Xiva xoni Sherg'ozixon 1714-1717 yillarda xonlikka kirib kelgan Aleksandr

Bekovich-Cherkasskiy boshliq Rossiya harbiy ekspeditsiyasini tor-mor qilishga erishadi. Bu voqea Rossiyaning Markaziy Osiyoga bosqinchilik yurishlarini kechiktirishiga sabab bo'ladi.

1728 yilda Xivadagi qullar qo'zg'oloni oqibatida Sherg'ozixon va uning mulozimlari qatl qilingandan keyin, taxtga qozoq xoni qarindoshi bo'lgan yosh xon o'tqaziladi. Biroq juma kuni ertalab taxtga o'tqazilgan xon, juma namoziga borayotib, yo'lda otdan yiqilib halok bo'ladi. Shu sabab ham unga Sari Ayg'irxon deb nom berishadi.

Shubhasiz, xonning otdan yiqilishi oldindan uyushtirilgan fitna edi. Shundan so'ng Xiva xonligi taxtiga boshqa bir qozoq sultoni Elbarsxon o'tiradi.

Elbarsxon davrida ham o'zbeklar va turkmanlar bilan kurash to'xtamaydi. Elbarsxonning o'zi 1740-yilda Eron shohi Nodirshoh bilan jangda halok bo'ladi. Xiva taxtiga boshqa qozoq sultonlari — Tohirxon va Abulxayrxon o'tqaziladi. Biroq Abulxayrxon Nodirshohdan qo'rqib qochib ketadi (jami 6 kun xonlik qiladi). Xiva Eron qo'shini tomonidan bosib olinadi.

Xonlar aslzodalardan bo'lgani bois, xon qilib ko'tarilgandan keyin, layoqati bo'lmagani o'zi iste'fo bergan. Ayrimlari hatto qochib ketgan. Ba'zi hukmdorlar nomigagina xon bo'lib, amalda davlatni o'zgalar boshqargan. 1740-yili taxtga o'tirgan Abulxayrxon ismli hukmdor esa 6 kungina xon bo'lishga chidab berdi. Keyin, Eron shohi Nodirning yoniga ketdim deb, aslida o'zi qozoq bo'lgani bois dashtga qarab qochadi [12:3].

1770-yilda nihoyat qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan Muhammad Amin inoq amalda Xiva hukmdorligini qo'lga kiritadi. Biroq u ham xuddi Buxorodagi mang'itlar singari Chingiz urug'idan bo'lmagani bois taxtga qo'g'irchoq hukmdorlarni qo'yishda davom etadi. 1804-yilga qadar yana o'ndan oshiq xonlar almashtiriladi. Bu an'ana 1804-yildagina to'xtatiladi. Muhammad Amin inoqning nevarasi Eltuzar shu yili soxta xon Abulg'oziy V ni taxtdan tushiradi va o'zini xon deb e'lon qiladi. Shu bilan Xivada rasman o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'i hukmronligi o'rnatiladi va bir asrdan oshiqroq vaqt davom etgan «xonlar o'yini» yakun topadi [12:3].

Yuqorida bayoni keltirilgan Xiva xonligidagi «xonlar o'yini», yoki «xonbozi» davri shubhasiz xonlikni butunlay og'ir ahvolga solib qo'yadi. Xonlikdagi vaziyat shunchalik chigal, tartibsiz

ediki, rus qo'shinini yenggan Sherg'ozixondek kuchli hukmdor ham bu o'yinni to'xtata olmaydi. Aksincha, uning o'zi ham shu o'yin qurboniga aylanadi. «Xonbozi» davrining asosiy sababi Xivada markaziy hokimiyat avvaldan kuchli bo'lmagani edi. Ya'ni hukmdor o'zbeklar bir-biri bilan kurashda turkman, qozoqlar yordamidan foydalanadi va o'z ta'sirini zaiflashtiradi. Xonlar davlatni boshqarishda asosan o'z urug'lariga tayanadi. Qolaversa, Xiva xonlari juda ko'p urushlar olib borishgan. Ular Buxoro xonligi, ichki Xuroson, Mang'ishloq yarim oroliga doimiy bosqin uyushtirib turishgan. Ayniqsa, Buxoro bilan urushlar xonlikning tinkasini quritadi. Shuningdek, qozoqlar, turkmanlarning doimiy bosqinlari, mang'itlar, naymanlar va Orolbo'yi o'zbeklarining muntazam kurashlari xonlik mustahkamlanishiga yo'l bermasdi. Xonlar ba'zi davrlarda faqatgina beshta shaharni boshqarar edi, xolos. Xonlikning qolgan qismi amalda mustaqil bo'lgandi [11:4].

XIX asrda qo'ng'irotlar tartibni tiklagan bo'lsa ham, xonlik allaqachon xonavayron bo'lgandi. To'xtovsiz urushlar sabab iqtisodiyot izdan chiqqan, savdo-sotiq keskin kamaygan, shaharlar vayronaga aylangandi. Munisning «Firdavs ul-iqbol» asarida yozilishicha, ahvol shu darajada bo'lganki, Xivada bor-yo'g'i 40-50 xonadon qolgan. Tinimsiz urushlardan charchagan aholi xonlikdan ko'chib ketgan. Oqibatda butun dunyo jadal rivojlanayotgan vaqtda Xiva xonligi qoloqligicha qolib ketadi. Xonlikda oddiy sug'orish inshootlari ham buzilib ketgan, aholi katta mashaqqatlar bilan hosil yetishtirardi. Yetishtirilgan hosilni esa soliqchilar olib ketardi. Xonlik uzoq vaqt davomida o'z puliga ham ega bo'lmagan. Buxoro yoki Eron tangalaridan foydalangan. Shafqatsiz, to'xtovsiz taxt uchun kurashlar Xiva xonligini qoloqlik botqog'iga botirdi va uning tez orada Rossiya mustamlakasi ostida qolishiga asosiy sabab bo'ldi.

Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi kabi o'zbek davlatlarida ham soxta xonlarni qo'yish amaliyoti qo'llab ko'rilganiga tarixiy faktlar mavjud. Jumladan, Ashtarxoniylarning Ubaydulloxon II va Abulfayzxon kabi xonlarining hukmronligi davrida markaziy hokimiyat nihoyatda zaiflashgan edi. Qator viloyatlar amalda mustaqil bo'lib olgan edilar. Shahrisabz hokimiy Ibrohimbiy kenagas 1722-yilda o'zining bir guruh tarafdorlari bilan asli kelib chiqishi Xiva xonlaridan bo'lgan

kuyovi Rajab Sultonni Samarqandda xon qilib ko'taradi. Lekin Rajab Sulton haqiqiy xonlar avlodidan bo'lganligi aniq emas edi. Ashtarxoniylar Abulfayzxon 1747-yilda fitna natijasida o'ldirilgandan keyin mang'itlar yetakchisi Muhammad Rahimbiy 1747-1751-yillarda Abdulmumin, 1751-1753-yillarda Ubaydulloh III, 1753-1756-yillarda Sherg'oziy larni soxta xonlikka qo'yib amalda davlat hokimiyatini ularni nomidan boshqargan [10:323].

Muhammad Rahimbiy 1758-yil 24-martda vafot etganidan so'ng uning o'g'li bo'lmaganligi uchun xonlik taxtiga voyaga yetmagan nabirasi (qizidan bo'lgan o'g'li) - Fozilto'ra o'tqazilgan, Miyonqol hokimi bo'lgan Doniyolbiy (Muhammad Rahim amakisi) unga otaliq etib tayinlangan. Bundan norozi bo'lgan viloyat hokimlari, kenagas, yuz, bahrin, burhut va saroy qabilalari amirlari markazlashgan hokimiyatga qarshi isyon ko'tarib, 10 ming yigitni qurollantirib, Buxoro tomonga yurishgan. Ularga qarshi chiqqan Doniyolbiy isyonkor viloyat hokimlari bilan bir bitimga kelishgan. Unga ko'ra, Fozilto'rani taxtdan tushirib, o'rniga Ashtarxoniylar shahzodalardan bo'lgan Abulg'ozil xonlik taxtiga o'tqazilgan. Abulg'ozil soxta xon sifatida 1758-1785-yillarda taxtda turgan. Doniyolbiy shu yo'l bilan ham otaliq mansabini, ham amaldagi hukmdorlikni o'z qo'lida saqlab qolgan [13:1]. Soxta xon sifatida aynan Abulg'ozil faoliyat olib borgan, Doniyolbiy esa uning nomidan hokimiyatni tasarruf etgan.

Tariximizning soxta xonlar qo'yish amaliyoti ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'luvchi masala hisoblanadi. Bizning nazarimizda, tarixning bu voqeasiga nisbatan munosabatda tarixiylik tamoyilidan kelib yondoshish zarur. Aynan o'sha davrdagi vaziyat amaldagi hukmdorlarni mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash uchun shu yo'lni tutishini taqozo etgan bo'lishi mumkin. Qolaversa bizga goho noma'lum bo'lgan tarixiy sabablar bu amaliyotni uzoq vaqt amal qilib kelganligi zaminida yanada chuqurroq o'rganish lozim bo'lgan tarixiy jarayonlar borligidan darak beradi. Nima bo'lgan taqdirda ham tarixni ulkan bir muallim sifatida qarash, uning o'ziga xos darslaridan ibrat olib yashash hozirgi avlod uchun juda muhim hisoblanadi.

XULOSA

Tariximizni turli davrlarida amal qilgan “soxta xonlar” qo‘yish an‘anasi ba‘zan davlatning siyosiy hayotini barqarorlashtirishga yordam bergan bo‘lsa, aksariyat hollarda davlatni taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan, uning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yemirgan. “Soxta xonlar” haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganish tarixiy jarayondan ibratli xulosa chiqarishga ham undaydi. “Soxta xonlar” agar Amir Temur davlatida Temurning hokimiyatini mustahkamlashga yordam berishgan bo‘lsa, boshqa tarixiy davrda ular markaziy hokimiyat kuchsizligi, davlat siyosiy tarqoqligining ramzi sifatida namoyon bo‘lishadi. Ularning hukmronligidan so‘ng, ko‘pgina hollarda sulolalar almashinuvi, yoki boshqaruv tizimining jiddiy o‘zgarishi ro‘y bergan. Tariximizdagi bu jarayonni rad etmagan holda, uning ba‘zan ijobiy, ba‘zan esa salbiy oqibatlariga olib kelganligini ham tan olishimiz kerak. Xulosa o‘rnida shuni alohida ta‘kidlash lozimki, davlat hayotida markaziy hokimiyat mustahkamlanib, siyosiy sistema qanchalik barqaror bo‘lsa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ilgarilanma harakat qilaveradi. Aksincha markaziy hokimiyat zaifligi hokimiyatga intiluvchi turli kuchlarni “faollashuvi”ga olib keladi. Bu esa umumiy ma‘noda taraqqiyotga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Temur tuzuklari / Forscha matndan A. Sog‘uniy va H. Karomatov tarjimasi. –Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Amir Temur jahon tarixida / Mas‘ul muharrir Habibulla Karomatov – Toshkent.: “Sharq”, 2001.
3. Hamidov H., Ernazarov Sh., Rahmonov B. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2021.
4. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. – Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960.
5. Nazirova H. Xonlar alqagan muarrix. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021.
6. Odilov A. Amir Temur tuzuklari davlat boshqaruvi asoslari – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2016.
7. Стенли Лейн-Пул. Мусулманские династии – Москва.: Центрполиграф, 2020.
8. G‘afforov Sh. S. Amir Temur davri davlat boshqaruviga oid ba‘zi bir mulohazalar // International Journal For Advanced Research In Science & Technology. № 2. 2021.
9. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma – Toshkent: Sharq, 1997.
10. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Hoshimov S. Vatan tarixi – Toshkent, 2020.
11. https://t.me/centerasia_library/
12. <https://www.inform.kz/ru/>
13. O‘zbekiston hukmdorlari. <https://www.ziyouz.com/>